

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING INGLIZ TILIDAGI NUTQINI RIVOJLANTIRISH

**Suleymanova Shaxrizoda student of
JSPI faculty of foreign languages**

Scientific adviser G. Murodova

Annotatsiya: Ushbu tezisda boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ingliz tiliga bo'lgan qiziqishini oshirish va sodda yo'llar bilan ularga tushuncha bera olish hamda korgazmalardan unumli foydalanish. O'quvchilar nutqida uchraydigan an'anaviy nuqsonlarni oldini olish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: og'zaki nutq, nutqiy faollik, nutqning grammatik tomoni, lug'at, muloqot, grammatik jihat, bilim va tarbiya.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim tarbiya berishda eng asosiy vazifalardan biri o'quvchilarga ona tilini o'rgatish bilan bir qatorda xorijiy tillarni o'rgatish, shu nuqtaiy nazardan ingliz tilini o'rgatishdir. O'quvchini ingliz tiliga qiziqitira olish, ingliz tilida nutqini rivojlantirish, mutqiy munosabatga, muomalaga o'rgatishdir, o'stirishning asosiy maqsadi: o'quvchilarning ingliz tilidagi og'zaki nutqini rivojlantirishdan, atrofdagilar bilan nutqiy muloqotda bo'lish malakasini shakllantirishdan iborat.

Nutq o'stirish vazifasi o'z ichiga bir qancha maxsus vazifalarni oladi:

1. O'quvchilarni sinf xonasi va tevarak-atrof bilan tanishtirish, nutqini o'stirish, lug'atini boyitish;
2. Nutqning grammatik tomonini shakllantirish;
3. Nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash;

Lug'at ustida ishlash ko'rgazmali qurollardan tahqari sinf xonasidagi ko'rgazmalardan hamda tevarak-atrof bilan tanishtirish orqali ham amalga oshiriladi. O'quvchilarni tevarak- tarofdagi buyumlar, hodisalar, o'simliklar, hayvonot dunyosi va hokozolar bilan tanishtirish jarayonida ularning nomlarini, sifatlarini, hususiyatlarini inglizcha so'zlar bilan aytamiz.

Masalan: Buyumlarning nomini anglatadigan: (things) mirror (ko'zgu) camp (taroq), soup (sovun), carteen (gilam), cupboard, (shikaf) bad (krovat), tablecloth (dasturhon). Vegetables: (sabzavotlar nomini anglatadigan carrot (savzi). cabbage

(karam), turnip (sholg'om), cucumber (bodring). Fruits: (mevalar) apple (olma), pear (nok), cherry (olcha), peach (shaftoli), banana (banan), grape (uzum) domestic animals (uy hayvonlari) rooster (xo'roz), hen (tovuq), horse (ot), cow (sigir), dog (it), cat (mushuk), goat (echki). Verbs (harakatni ifodalovchi) washing (yuvinmoq), cleaning (tozalamoq), doing iron (dazmollamoq). cooking (pishirmoq) va boshqalar. Adjectives: (sifatlari) big (katta), small (kichkina), red (qizil), green (yashil), hot (issiq), cold (soviq) va hokazo so'zlar sozlar o'quvchilarning sinf xonasi vatevarakatrof bilan tanishtirish jarayonida o'quvchlar lug'atiga kiritiladi, buning natijasida ularning lug'ati boyitiladi, nutqi rivojlanadi.

Ingliz tili darslaraida lug'at bilan ishlash juda muhim bo'lib, o'qituvchi o'quvchilarga o'rtoqlari bilan ingliz tilida nutqiy muloqotga kirishib keta olishiga yordam beradigan tanlab hamda dialogik nutq yordamida ular nutqiga kiritib boradilar. O'quvchilari so'zlarning tarjimasini tushunishga o'rgatibgina qolmay, balki bu so'zlarni nutqlami faol ishkatishga ham odatlanib boradilar. Lug'at tilning qurilish materiali hisoblanadi. Grammatika esa gapda so'zlarning o'zgarishi va ularning bog'lanish usullarini belgilaydi. Bundan tashqari, grammatika tilning qurilish modelini (so'z O'quvchi ovchi, so'z o'zgartiruvchi) belgilaydi. yasovchi, so'z i ingliz tilining barcha grammatik shakllarini qancha erta o'zlashtirsa, u aqliy jihatdan ham, nutqiy jihatdan ham sunchalik tez rivojlanadi. Agar o'quvchida nutqning grammatik tomoni noto'g'n shakllansa, aqliy kechkadi. O'qituvch har bir mashg'ulot va o'yin turlarida bolalar nutqidagi grammatik rivojlanishi xatolarni tuzatishi kerak. O'z vaqtida tuzatilmagan grammatik xato bola nutqida mustahkamlanib, uni tinglayotgan boshqa bolalar nutqida ham grammatik xatolarning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Biroq maxsus tashkil etiladigan o'yinlarda bola nutqidagiu yoki albiy jihatlarni ogohlantirish bo'yicha ish paydo bo'lgan grammatik hatolarni o'z vaqtida bartaraf etish lozim.

Mahsus tashkil etiladigan o'yin va mashg'ulotlarda bolaning diqqati faqat kerakli Grammatik shakllarga jalb qilinadi. So'z, uning shakl jihatdan o'zgarishi, so'z birikmasi yoki gaplar ular aqliy faoliyatining mazmuni bo'lib qoladi. Bunday. mashg'ulotlarni izchillik va ketma-ketlik bilan olib barish natijasida bolalar qanday gapirish kerakligini anglaydilar, savodli chiroyli gapirishga harakat qiladilar. Qulay ishchanlik ruhida tashkil etiladigan mashg'ulotlar bola diqqatini chalg'ib ketishining oldini oladi, ular o'qituvchining tushuntirishlarini, ko'rsatmalarini diqqat bilan tinglaydilar, o'rtoqlarini nutqini kuzatadilar.

Mashg'ulotda nutq namunasini oladilar va o'z nutqlarida undan foydalanadilar. Ko'pgina o'quvchilar o'z o'rtoqlarining xatolarini tuzatishda o'qituvchining eng yaqin yordamchisiga aylanib qoladilar. Bolalar nutqidagi grammatik xatolami

ogohlantirish, uzatish maqsadida tashkil etiladigan maxsus mashg'ulotlar olib borishda quyidagi metodik ko'rsatmalarga amal qilish kerak:

Grammatik jihatdan to'g'ri nutqni shakllantirish bo'yicha mashg'ulotlar ko'rgazmali materiallar yoki I'rgazmasiz ladigan talimiy o'yin xarakteriga ega. Har bir boshlang'ich sinf uchun dastur mazmuniga mos talimiy o'yinlar. mashqlar tanlanadi.

Masalan: Birinchi sinflar uchun "English alphabet", "Numbers", "Domestic animals", "Family" va boshqalar. Ikkinchi sinf va undan yuqori sinflar uchun "Verbs". "Jobs", "Body", "Seasons", "Months and weeks" va hokazolar. Bola nutqidagi xatolarni do'stona, xushmuomilalaik bilan tuzatish kerak. Hech vaqt bola nutqidagi xatoni takrorlash yaramaydi, yaxshisi grammatik shaklli to'g'ri bo'lgan. so'zlarni, talimi talimiy o'yinlarni takrorlash joizdir, o'qituvchi dars davomida yokiturli hil o'yinlar davomida bola nutqini kuzatib borishi va grammatik xatolarni tuzatishi shart.

Bola nutqida grammatik xatolarni dars jarayonida etarli ovoz tonida, boshqa o'quvchilarga ham eshitarli qilib to'g'rilash kerak. O'quvchilarni grammatik to'g'ri gapirishga o'rgatish bilan bir qatorda nutqning tovush madaniyati ham o'rgatish lozim. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ingliz tili lotin alifbosiga o'hshab ketganligi bois. ayrim tovushlarni almashtirib yuboradilar. Masalan: "school" [sku:l] so'zini "schol", "book" [bu:k] so'zni bok, "bag" [ba:g] bag. O'quvchilarga bilim va tarbiya berishada so'zlashuv nutqiga (dialog) o'rgatish katta ahamiyatga egadir. Bolada so'zlashuv nutqini shakllantirish-bu boshqalarning nutqini tinglash va tushunish, so'zlashishni quvvatlash, savollarga javob berish va so'rashdir (savollar beris). Bola so'zlashuv nutqining rivojlanganlik darajasi uning lug'at boyligiga, tilning grammatik tomonini egallaganligiga bog'liqdir. Maktab sanf xonalarining ham ko'rinishi alohida o'rin egallaydi. Yani yorug'lik yetarli darajada bo'lishi, stollar, jihozlar o'quvchilar bo'yiga mos bo'lishi kerak.

O'quvchilarning va o'qituvchining doimiy o'tiradigan joyi bo'lishi, o'quvchilar stolga o'tirishganda o'qituvchining aniq ko'rib turishlar, o'quvchilar o'qituvchiga, o'qituvchi esa o'quvchilarga qarab o'tirishlari kerak. Sinf xonasining havosi doimo yangilanib turishi lozim. Shuni xulosa qilib aytamanki, Poydevori mustahkam har qanday imoratning umri boqiydir. Bu o'xtashish qaysidir ma'noda ta'lim-tarbiya sohasiga ham aloqador.

Boisi, bola boshlang'ich sinfda bilimlarni qanchalik puxta egallasa, yuqori sinflarda o'qish oson kechadi. Zero, bo'lg'usi o'quvchilarning maktab saboqlariga moslashishi. bilim ko'nikmalarining dastlabki qirralaridan xabardor bo'lishlari

uchun ham bog'cha hamda boshlang'ich maktab vazifasini bajaruvchi bog'cha-maktablarning ahamiyati beqiyos. O'qituvchi darsda nutqi yaxshi rivojlanmagan o'quvchilarga alohida e'tibor qaratishi kerak. Ayniqsa indamas, muloqat qilishni istamaydigan, o'zini tutib tura olmaydigan, ezma o'quvchilarga yakkama-yakka yondashishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim terisida"gi qonuni 1997 yil.29- vgust. Oliy ta'lim me'yoriy hujjatlar to'plami. Sharq nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati.- T., 2001
2. Pedagogika "Nashr" Toshkent 2011y J. Xasanboyev
3. English kids. Toshkent 2011
4. <http://mthod.novgorod.rcde.ru/getblob.asp?id-5000...>
5. <http://rspu.edu.ru/university/chair/eng.html>.
6. Djabbarov, S. (2021). Бошланғич синф ўқувчиларига инглиз тилини ўқитишнинг долзарб муаммолари ва ечимлари. *Журнал иностранных языков и лингвистики*, 4(9).